"NIKOHDAN AJRATISH JARAYONIDA MEDIATSIYA: YARASHUV, KELISHUV VA MANFAATLAR MUVOZANATINI TA'MINLASH MASALALARI"

Ashuroxunova Diyoraxon
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro arbitraj va nizolarni hal etish yo'nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22875698

Mediatsiya bugungi kunda nizolarni sudgacha yoki suddan tashqari tartibda hal etishning muhim usullaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mediatsiya taraflarning o'zaro ixtiyoriy kelishuviga asoslangan holda, xolis va mustaqil mediator yordamida nizoni muzokara yo'li bilan hal qilishga qaratilgan jarayondir. Uning asosiy xususiyati shundaki, nizoning yechimi taraflarga tayyor holda taqdim etilmaydi, balki ular o'z manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zaro maqbul kelishuvga erishadilar. Mediatsiya jarayonida ixtiyoriylik, maxfiylik, hamkorlik va taraflarning teng huquqliligi muhim tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, mediatsiya jarayonida ishtirokchilarning o'zaro kelishuvi va rossiligini asosiy mezon etib olish lozim. Bundan tashqari, har bir taraf mediatsiya jarayonida mediatorni tanlash, shuningdek istalgan bosqichda ishtirokdan voz kechish huquqiga ega.

Huquqshunoslar E.I. Nosyreva va B.F. Yakovlev kabi mutaxassislarning fikricha, mediatsiya — bu nizoli tomonlar tomonidan tanlangan xolis uchinchi shaxsning ishtirokida muzokara olib borish orqali o'zaro rozilikka erishish usuli hisoblanadi.

Oilaviy nizolar ko'pincha hissiy ziddiyat bilan bog'liq bo'lib, turli taraflarning kelishmovchiliklari masalani yanada murakkablashtiradi. Shu sababli mediatsiya oilaviy nizolarda "eng maqbul yechim" topish va taraflar munosabatlarini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, E.F. Usmanova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, mediatsiya oilaviy nizolarda asosan taraflarning o'zaro manfaatlariga zid bo'lmagan, ikkovini ham qoniqtiruvchi yechimlarni izlashga imkon yaratadi. Ushbu yondashuv orqali tomonlar huquqlarini himoya qilish bilan birga, o'zaro do'stona muloqot davom ettiriladi va nizodan kelib chiqadigan moddiy hamda ma'naviy zarar minimallashtiriladi. Mediatsiya jarayonida taraflar vakolatli huquqshunos bo'lmagan mediator yordamida muloqot olib boradi; bunga ko'ra, suddan farqli ravishda, hech kim yutqazuvchi yoki g'olibni o'rnatmaydi. Natijada, kelishuvga erishilganda uni bajarish darajasi oshadi va kelajakda hamkorlik munosabatlari yaxshilanadi.

Mamlakatimizda oilaviy meditatsiyani rivojlantirish borasida ayrim to'siqlar mavjud. Mutahassislarning fikriga ko'ra, oilaviy nizolarda samarali mediatsiya jarayonlarini amalga oshirishga bir qator omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tomonlarning muzokaralarga tayyor emasligi va muloqot qila olmasligi, ya'ni ba'zi qatnashchilarning o'z manfaatlarini to'g'ri aniqlay olmasligi, nizoni hal qilishda hamkorlikdan bosh tortishi tez-tez uchraydi. Bu holatda huquqiy maqsadlarni aniq belgilash va yechimni topish juda qiyinlashadi. Xuddi shunday, oilaviy nizolar kuchli hissiy ziddiyat bilan kechishi, qatnashuvchilarning jipsligi va hissiy taranglikka olib kelishi mumkin. Ushbu holatlar esa mediatorning ishini murakkablashtiradi va muzokaralar muddatini uzaytirishi mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Sud yuklamasining ko'pligi sababli sudlarda oilaviy nizolarni ko'rib chiqish ko'p vaqt talab etadi. Bu esa vaqt, ortiqcha mablag' va kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, mamlakatimizda hali ham oilaviy mediatsiya va kelishuv instituti to'liq o'zaro uzviy bog'lan holda yo'lga qo'yilmagan.

Ushbu muammolarni yengillashtirish maqsadida bir qancha yechim yo'llari taklif etishimiz mumkin. Jumladan, yaqinda olib borilgan ilmiy izlanishlarda mediatsiyani oilaviy nizolarga joriy etishda asosiy to'siqlarni bartaraf etish uchun uni qonun darajasida yanada kuchaytirish taklif qilamiz. Shuningdek, tomonlarning mediatsiya jarayoniga jalb etilish darajasini oshirish uchun sud-huquq organlari bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Misol uchun, sudlarga oilaviy nizolar bo'yicha ariza kelib tushganda, avvalo nizoli tomonlarni mediatsiya bo'yicha maslahat olish uchun yuborish yoki yo'llanma berish amaliyoti joriy etilishi tavsiya etiladi. Buning oqibatida sud yuklamasi kamayadi va kelib chiqqan nizolar aholi uchun qulayroq – ixtiyoriy shart-sharoitlarda hal etilish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, sudlarda oilaviy mediatsiya xonalarini tashkil etish ham o'zaro hamkorlikni rivoshlantirish uchun katta qadam bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shaxri Mirobod tuman sudida **"Oilaviy mediatsiya"** xonasi tashkil etilgan. Bunday amaliyotni respublikaning barcha fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman va shahar sudlarida joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, oilaviy nizolar, xususan, nikohdan ajratish, farzand tarbiyasi, aliment va mol-mulkni taqsimlash bilan bog'liq nizolar insonlarning shaxsiy va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sud huzurida faoliyat yurituvchi "Oilaviy mediatsiya" xonalari nizolashayotgan tomonlarga professional mediatorlar yordamida muloqot o'rnatish va o'zaro maqbul yechimga erishish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, mazkur xonalar orqali oilaviy nizolarning ma'lum qismini sud qarorisiz hal etish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada sudlarning ish yuklamasi kamayadi, ishlarni ko'rib chiqish muddatlari qisqaradi hamda sud xarajatlari tejaladi.

Uchinchidan, mediatsiya jarayonida er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish yoki ajrim muqarrar bo'lgan hollarda ham nizoni sivilizatsiyalashgan tarzda hal etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini himoya qilish, oilaviy qadriyatlarni asrash va jamiyatda ajrimlar salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, barcha fuqarolik sudlarida "Oilaviy mediatsiya" xonalarini tashkil etish mediatorlar, psixologlar va sudlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, nizolarni kompleks yondashuv asosida hal etishga imkon beradi.

Shu munosabat bilan Fuqarolik ishlari bo'yicha barcha sudlarda "Oilaviy mediatsiya" xonalarini tashkil etish hamda nikohdan ajratish va boshqa oilaviy nizolar yuzasidan sudga murojaat qilgan taraflarga mediatsiya imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etuvchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu o'z navbatida oilalarni saqlab qolish, sud yuklamasini kamaytirish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, oilaviy mediatsiyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mediatsiya sohasiga oid barcha zarur ma'lumotlarni jamlagan yagona ixtisoslashtirilgan veb-saytini yaratish taklif etiladi. Mazkur portalda mediatorlar reyestri, oilaviy mediatorlar ro'yxati, ularga murojaat qilish tartibi, mediatsiya bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, namunaviy mediativ kelishuv shakllari hamda fuqarolar uchun amaliy tavsiyalar joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu taklifning huquqiy asosi shundaki, amaldagi tartibga ko'ra Mediatorlar reyestri Adliya vazirligi va hududiy adliya organlarining rasmiy veb-saytlarida yuritiladi va e'lon qilinadi. Biroq ma'lumotlarning turli manbalarda joylashganligi fuqarolarning ulardan foydalanishini murakkablashtirishi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

mumkin. Shu sababli barcha ma'lumotlarni yagona elektron platformada jamlash mediatsiya xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshiradi, fuqarolarga eng yaqin yoki ixtisoslashgan oilaviy mediatorni tezkor topish imkonini beradi hamda mediatsiya institutining ommabopligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada mediatsiyani targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar amaliy va samarali mexanizm bilan ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, nikohdan ajratish va boshqa oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiyadan foydalanish taraflarning manfaatlarini o‘zaro kelishuv asosida muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Oilaviy nizolarning boshqa nizolardan farqli ravishda shaxsiy va hissiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqligi mediatsiyaga alohida ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi. Mediatsiya orqali taraflar o‘z nizosini sud tomonidan majburiy hal qilinishini kutmasdan, mediator yordamida o‘zaro muloqot qilish va o‘zlari uchun maqbul bo‘lgan yechimni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday yondashuv er-xotin o‘rtasidagi nizoni imkon qadar tinch yo‘l bilan hal qilish, voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini hisobga olish hamda ajrimning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda oilaviy mediatsiyadan foydalanish amaliyotini yanada rivojlantirish uchun mavjud tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Xususan, fuqarolik sudlarida “Oilaviy mediatsiya” xonalarini tashkil etish, sudga murojaat qilgan taraflarga mediatsiya imkoniyatlari haqida tushuntirish berish va mediatorlar hamda sudlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday mexanizm sudlarning ish yuklamasini kamaytirish bilan birga, fuqarolarga nizolarni o‘zaro kelishuv asosida hal etish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, mediatsiya to‘g‘risidagi ma'lumotlarni yagona elektron platformada jamlash ham amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur platformada mediatorlar reyestri, oilaviy mediatorlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar, mediatsiyaga murojaat qilish tartibi, normativ-huquqiy hujjatlar va namunaviy mediativ kelishuv shakllarining joylashtirilishi fuqarolarning ushbu institutdan foydalanishini yengillashtirishi mumkin.

Umuman olganda, oilaviy mediatsiyani rivojlantirish sud tizimiga muqobil mexanizm yaratish bilangina cheklanmaydi. U oilaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, taraflarning o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirish, voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini himoya qilish va nizolarning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiluvchi amaliy vosita sifatida qaralishi lozim. Shu sababli oilaviy mediatsiyani O‘zbekistonda yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish bilan bir qatorda, uning amaliy qo‘llanilishini ta'minlaydigan tashkiliy mexanizmlarni ham bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.